



PRESS-RELIZ

2022-yil 19-avgust

Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining 2022-yil 1-yarim yillik tahliliga bag‘ishlangan matbuot anjumani to‘g‘risida

2022-yil 19-avgust kuni Navoiy shahridagi “NKM” tarixi” muzeyida ommaviy axborot vositalari vakillari va journalistlar uchun “Navoiy kon-metallurgiya kombinasi” aksiyadorlik jamiyatida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining 2022-yil 1-yarim yillik tahliliga bag‘ishlangan matbuot anjumani o‘tkazildi.

Matbuot anjumanida “NKM” AJ Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga oid ishlarni nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i Shavqiddin Idiyev, Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha direktor Xolmamat Raupov, OAV vakillari va journalistlar ishtiroy etishdi.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinasi” aksiyadorlik jamiyatida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishslash bo‘yicha aniq tizim belgilangan bo‘lib, murojaatlarni ko‘rib chiqishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan va hozirgi kunda unga muvofiq murojaatlar belgilangan tartibda ko‘rib chiqilmoqda.

Xususan, joriy yilning 1-yarim yilligi davomida kombinatga jami 1 852 ta yozma, og‘zaki, elektron va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi hamda Bosh vazirining tadbirdorlar murojaatlarini ko‘rib chiqish qabulxonasi orqali murojaatlar kelib tushgan. Ularning 118 tasini (6,4 foiz) og‘zaki murojaatlar, 349 tasini (18,8 foiz) yozma murojaatlar, 1 385 tasini (74,8 foiz) elektron murojaatlar tashkil etadi.

Shuningdek, 2022-yilning 1-yarim yilligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali jismoniy va yuridik shaxslardan kombinatga taalluqli jami 1 334 ta murojaat kelib tushgan. Ushbu murojaatlarning 1 177 tasi (87,8 foiz) to‘la qanoatlantirildi. Ya’ni, murojaatlarning 662 tasi (49,6 foiz) ijobjiy hal qilindi. 515 tasi (38,6 foiz) huquqiy tushuntirishlar berish orqali hal qilindi. 140 tasiga (10,5 foiz) zaruriy tushuntirishlar berildi. 6 tasi (0,4 foiz) murojaatchining xoxishiga ko‘ra ko‘rmasdan qoldirildi. 11 tasi (0,8 foiz) yuzasidan tugatilganligi to‘g‘risida bayonnomaga tuzildi.

Kombinatga ko‘p hollarda fuqarolar moddiy yordam so‘rab murojaat etishadi. Jumladan, joriy yilning 1-choragida korxonaga 10 nafar fuqarodan ana shunday mazmundagi murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlar o‘rganib chiqilib, kombinat ma’muriyati ularga jami 820 million so‘m miqdorida moddiy yordam ko‘rsatishga qaror qildi. Bundan tashqari, kasaba uyushmasi Kengashining “Birdamlik” fondi mablag‘lari hisobidan yana 10 nafar fuqaroning murojaatlari ko‘rib chiqilib, ijobjiy hal qilindi va ularga ham moddiy yordam ajratildi.

Bugungi kunda kombinat rahbariyati hamda bo‘linmalar rahbarlari bilan hamkorlikda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘z vaqtida ko‘rib chiqish, tizimli muammolarni joyiga borib hal qilish hamda murojaatlarni kamaytirish ishlari muntazam ravishda amalga oshirilib borilmoqda.

Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, kombinatda murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha mustahkam tizim, ya'ni, "temir tartib" joriy etilgan. Murojaatlar kimga yo'naltirilgan bo'lsa, o'sha mas'ul rahbar qonunchilikka asosan murojaatni o'z vaqtida ko'rib chiqishi, ijrosini sifatli ta'minlashi belgilab qo'yilgan. Buning ustidan doimiy nazorat o'rnatilib, monitoringi olib borilmoqda. Agarda, murojaatlarni ko'rib chiqishda qaysi mas'ul qonunbuzilishlarga yo'l quyayotgan bo'lsa, unga nisbatan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda intizomiy chora ko'riladi.

Shuning bilan birga, kombinat rahbariyati tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish, bo'linmalarda sayyor qabullarni tashkil etish reja-jadvali ham tasdiqlangan bo'lib, belgilangan muddatlarda qabullar o'tkazilib kelinmoqda. Xususan, 2022-yil 1-yarim yilligida Markaziy, Shimoliy hamda Janubiy kon boshqarmalarida o'tkazilgan sayyor qabullarda jami 35 nafar fuqarolar qabul qilinib, aksariyatining murojaatlari ijobiy hal etildi. Muammoning kombinatga taalluqligiga qarab, ba'zilariga joyida huquqiy tushunchalar berilgan.

Matbuot anjumanida OAV vakillari va jurnalistlarning savollariga atroflicha javoblar berildi.

Murojaat uchun ma'lumotlar:

"NKMK" AJ Matbuot xizmati, Ish telefonlari: +99879 227-75-88, 227-74-73

"NKMK" AJ rasmiy veb-sayti: www.ngmk.uz

"NKMK" AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

t.me/ngmkofficial, www.fb.com/nkmkofficial, instagram.com/nkmk.official, www.youtube.com/nkmkofficial